



OLY TALIM MUASASSALARIDA XODIMLARNING GENDER MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Egamberdiyeva M.Sh.

Alfraganus universiteti birinchi kurs magistranti

Bayjonov F.B.

Alfraganus universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida p.f.f.d., (PhD)

Tayanch so'zlar: gender madaniyat, gender tenglik, gender ta'limi, gender tarbiyasi, gender tizimi.

Ключевые слова: гендерная культура, гендерное равенство, гендерное образование, гендерное образование, гендерная система.

Key words: gender culture, gender equality, gender education, gender education, gender system.

Bugungi kunda mamlakat oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning o'rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod yosh olim va olimalarini tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag'batlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta'minlash, jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasida O'zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida: xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan .

Yangi O'zbekiston sharoitida o'zbek jamiyati demokratik rivojlanish tomon taraqqiy etib bormoqda. Xususan, demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri ayollar va erkaklarning barcha sohalarida teng huquqliligini e'tirof etish bo'lib, uni yoshlikdan shakllantirish zarur. Bunga oliy ta'lim muassasalarida gender madaniyatini shakllantirishga doir yondashuv va tamoyillar yordam berishini ta'kidlash zarur. Oliy ta'lim jarayonini tashkil etish va xodimlar ilmiy



salohiyatini har tomonlama himoya qilish mamlakatimizda gender siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. Ta'lim mazmunini yangilash va umumta'lim maktablarini modernizatsiya qilish sharoitida shaxsga ta'lim berishda va uni tarbiyalashda gender yondashuvi muammosi dolzarb bo'lib bormoqda.

Gender ta'limi ko'plab muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi va uni rivojlantirish zarurati pedagogik jamoalarda tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Biroq ko'pgina davlatlarning maktab ta'limida gender yondashuvi hali ham kam uchraydi. G'arbda gender ta'limi va tarbiyasi bolalar bog'chasidayoq boshlanadi.

Gender strategiyasini amalga oshirish orqali quyidagilarga erishiladi:

- Yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi.
- Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi.
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalar xotin-qizlarini ish bilan ta'minlash, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'zini o'zi band qilishga qarashlarga barham beriladi.

Gender tenglik bu – huquqlarning tengligi demakdir. Hayotning har jabhalarida, jumladan oliy ta'lim tizimida ayol va erkaklarga bo'lgan munosabat hamda imkoniyatlarning tengligini anglatadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda xodimlar o'rtasida gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora shakllanib bormoqda. Oliy ta'limda xodimlarning gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi. Oliy ta'limda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlilicha, Bolonya jarayonining Ijtimoiy o'lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta'limining (European Higher Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta'limga mazkur sifat tavsifi berilgan. Berlin kommyunikesida (2003 y.) milliy va Yevropa darajalarida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy va gender tengsizlikni qisqartirish maqsadida ta'lim raqobatbardoshligini oshirishning zarurati Yevropa oliy ta'limining ijtimoiy tavsiflanishini



yaxshilanishi bilan muvozanatlanishi kerak deb belgilab qo'yilgan. Genderga ta'sirchan amaliyotlarni va kamsitmaslik tamoyillarini qo'llashni ta'minlovchi malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimiga genderga oid bilimlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda gender madaniyat, tamoyillarini joriy etish, pedagog xodimlarda gender madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari va shaxs umummadaniyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar N.M.Egamberdiyeva, F.B.Bayjonov, M.Abdujabborova, M.Abdullayeva, Sh.Akramova, R.Djurayev, O.Jamoldinova, Z.Ismoilova, N.Qosimova, M.Quronov, U.I.Mahkamov, R.M.Medetova, N.Mullaboyeva, E.Muxtorov, N.Ortiqov, M.Tilavova, N.Xalilova, Sh.Xalilova, boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

N.Egamberdiyeva o'zining o'qituvchilarni tayyorlashda gender madaniyatini shakllantirish masalalari nomli o'quv qo'llanmasida Pedagog hodimlarni kasbga tayyorlashda gender to'siqlarni hisobga olish, hamda ishdan ajralmagan holda o'qituvchilarni uzluksiz malakasini oshirish jarayonidagi gender masalalarini hisobga olish haqida juda chiroyli tushunchalar bergan.

F.Bayjanov esa Markaziy Osiyoda jamiat, gender va oila nomli maqolasida jamiatimizdagi oilalardagi dunyoqarash hamda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlarni yoritib bergan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.Stolyarchuk, B.Ageev va boshqalar gender tarbiyasi muammolarini tadqiq qilishgan bo'lsalar, E.Kamenskaya, O.Konstantinova, R.Sobirovlar ta'limda gender yondashuvining o'ziga xos jihatlarni ochib berishgan. Bundan tashqari ta'limda gender umumlashtirish masalalari A.Smirnova, E.Yarskaya-Smirnovalarning, gender stereotiplarining ta'lim va tarbiyaga ta'siri L.Nadolinskayaning, oliy ta'limda gender tarbiya aspektlari L.Bullatova, I.Kletsinalarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan .

Xorijiy olimlardan P.Engelman, J.Piaje, M.Montessori, C.Xoffman kabilar shaxsning rivojlanishi, shuningdek, boshqalar sotsial transformatsiyalar tizimini o'rganib, o'quv jarayonini tashkil etishining zamonaviy amaliyotlarini tadqiq etishgan.

Oliy ta'limda xodimlarning gender tengligiga oid jihatlarni kiritish nafaqat xohish-istak va sifat masalasi, shu bilan birga bu oliy ta'lim tizimining yuridik majburiyati degan fikr ham mavjud. Masalan, Shvesiyada Kamsitilish to'g'risidagi qonun (Discrimination Act, 2008 y.) qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra gender tengligini targ'ib qilish bo'yicha faol choralarni ko'rish, misol uchun aniq maqsadlarni kiritish, ta'qib qilishni oldini olish bo'yicha choralarni

ko‘rish ish beruvchilar va o‘quv muassasalarining majburiyatlariga kiritilgan. Ta‘lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha oliy ta‘limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender prioritetni muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma‘lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta‘limdagi gender tenglik ta‘minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta‘limda gender tengligini ta‘minlash – bu gender prioritetni ta‘minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir. Ta‘limdagi gender tengligini tahlil qilishda turli xil o‘lchovlarni ajratib olish mumkin.

YUNESKO gender tengligiga erishish bo‘yicha quyidagi Doiraviy dasturni qo‘llashni tavsiya qiladi (Gender Equality Framework):

- ta‘lim olishda tenglik deganda yigit va qizlarga rasmiy va norasmiy ta‘limga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish tushuniladi;
- o‘quv jarayonidagi tenglik yigit va qizlar o‘quv jarayonida adolatli baho va e‘tibor olishi, ya‘ni ular o‘g‘il va qiz bolalarni o‘qitishning turli xil usullari bilan bog‘liq bo‘lgan maqbul kelishmovchiliklarni inobatga olib tuzilgan bir xil o‘quv dasturlari orqali shug‘ullanishini nazarda tutadi;
- ta‘lim natijalaridagi tenglik yigit va qizlarning ta‘lim natijalaridagi baholari ularning individual iste‘dodi va say-harakatlariga asoslanadi deganidir. Muvaffaqiyatga erishishning adolatli imkoniyatlarini ta‘minlash uchun ta‘lim muddati, akademik malaka va diplomlari jinsiy mansublikka qarab farqlanishi mumkin emas;
- tashqi natijalardagi tenglik bu ayol va erkakning maqomi ularning tovar va resurslarni qo‘lga kiritishda, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy faoliyatda ishtirok etish va foyda olishda o‘z hissasini qo‘shishdagi qobiliyati tengligidir.

Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta‘lim tizimida genderni oid ta‘lim berishning ikki xil yondoshuvi qo‘llanilmoqda: “Gender tizimi” tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarining gender o‘lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma‘nolari ko‘p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ldi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimida gender masalalari, xotin-



qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, qobiliyatlarini erkin amalga oshirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq normativ-huquqiy bazayana data komilashtirildi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (2019), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi (2019) O'zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilindi. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida gender yondashuv asosida kadrlarning ilmiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlarning olib borilishi bo'lg'usi mutaxassislar ijtimoiy faolligining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishiga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda jamiyatning barcha sohalarida ayol va erkaklar teng huquqligini ta'minlashni maqsad qiluvchi 2020-2030 yillarda Gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinadi. Strategiyadan ko'zlangan asosiy maqsad – barcha ayollar va qizlar, erkaklar va bolalar uchun ularning irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotdagi fundamental inson huquqlarining ta'minlanishiga erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ayollarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, ularning hayotiy faoliyatini yanada yaxshilash hamda keng imkoniyatlar ochib berish maqsadida prezidentimiz tomonidan qonunlari va farmonlari ishlab chiqilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan – "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son va huddi shunday 2019-yil 2-sentabrda – "Xotin qizlar va erkakalar teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ 562-sonli hamda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad vazifalar turli xildagi (jinsiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy) tazyiqlarga uchrashini oldini olish va kamaytirish maqsadida gender madaniyati kuchaytirildi. Oxirgi 3-yil mobaynida ayollarga ajratilgan imkoniyatlar sababli ishlovchilar salmog'i oshmoqda. Xususan viloyatlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak,

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019-2020-o'quv yilida 1653 nafar 2020-2021-o'quv yilida 1763 nafar, 2021-2022-o'quv yilida 2051 nafarni, 2022-2023-yilida 2382 nafarni tashkil etmoqda.

Toshkent shaharda esa 2019-2020-o'quv yilida 11507 nafar, 2020-2021-o'quv yilida 11587 nafar, 2021-2022-o'quv yilda 13452 nafarni, 2022-2023-o'quv yillarda 14600 nafarni tashkil qilgan.



Jizzax viloyatida 2019-2020-o‘quv yilida 970 nafar 2020-2021-o‘quv yilida 1034 nafar, 2021-2022-o‘quv yilida 1374 nafarni, 2022-2023-o‘quv yilida 1538 nafarni tashkil etmoqda.

Navoiy viloyatida 2019-2020-o‘quv yilida 716 nafar 2020-2021-o‘quv yilda 714 nafar, 2021-2022-o‘quv yilida 738 nafarni, 2022-2023-o‘quv yilida 908 nafarni tashkil etmoqda.

Ushbu ko‘rsatgichlardan ko‘rishimiz mumkinki eng yuqori ko‘rsatgichlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida, eng past ko‘rsatgichlar esa Navoiy va Jizzax viloyatlarida kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugun kunda jamiyatimiz yangi siyosiy munosabatlar shakllanishi, uchinchi renessans jarayonining ilk bosqichida turibdi. Ushbu jarayonda erkaklar va ayollar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy va boshqa sohalarda gender tengligini ta‘minlash, ayniqsa pedagog hodimlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini takomillashtirish talab etiladi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bu borada yuqori samaradorlikka erishishda quyidagilarga e‘tiborni kuchaytirish lozim:

- gender muammolariga oid qiziqirgan savollar bo‘yicha maslahatlar olish va berish maqsadida MOOKlar(Ommaviy ochiq onlayn saytlar)ni yo‘lga qo‘yish, vebinarlar (vebseminarlar, vebkonferensiyalar, vebdebatlar, veb murojaatlar, metodik veb sahifalar va b.q).
- oliy ta‘lim muassasalarida gender masalalari bo‘yicha treyning darslar tashkil qilish;
- gendershunos ilmiy kadrlar tayyorlash uchun gender tadqiqotlar sohasidagi falsafa (PhD) va falsafa (DSc) doktori ilmiy darajalari olishni ta‘sis etish shuningdek, Ilmiy kengash va doktoranturalar ochish, gender tenglik yo‘nalishidagi ishlarni uzluksiz tashkil qilish va takomillashtirish, ularni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish masalalari ijrosini ta‘minlash, gender yo‘nalishini fan sohasi sifatida akademik sohalar reestriga kiritish davr talabidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. N.Egamberdiyeva, B.Xonturayev Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari // Ijtimoiy boshqaruv jurnali. – Toshkent: 2023. – B.45
3. Жирибинка И.А. Введение в гендерные исследования. – Санкт-Петербург: 2001. – Б.89
4. Babayeva Z., Usmanova Z. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrisomatiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – B.34
5. Qurbanbayeva N. Oliy ta‘lim tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Экономика и социум. № 7 (86). 2021.



6. B.Namazov, N.Egamberdiyeva, M.Mirsoliyeva. (2018) O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O'quv qo'llanma. – Toshkent.

7. Эгамбердиева, Н., Камилова, Р., Атаниязова, Р., Исакова, Л., Усманова, М., Исломов, А. (2021). Гигиенические аспекты формирования устойчивой социальной среды в семье. <https://doi.org/10.17513/np.492>.

8. Jamoldinova, O. (2022). Ta'lim tizimida gender yondashuv tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O'zbek ILMIY-METODIK JURNAL, 1, 15-22. <https://doi.org/10.18411/doi-code-2022.055>.

9. Norkulov, H. (2023). O'smirlarni oilaga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari. Foreign Languages in Uzbekistan, 133-142. <https://doi.org/10.36078/1683277776>.

10. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/89/70>.

11. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. <https://doi.org/10.15863/tas.2021.06.98.21>.

12. Тожибоева Х.М. (2021) Гендер ёндашув асосида ўсмир ёшдаги ўқувчиларда “оммавий маданият”га қарши иммунитетни шакллантириш // Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириш. - Нукус, 2021. – 5/2-сон. – Б.46-50 <https://scientists.uz/uploads/202207/B-323%20.pdf>.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada Oliy talim muasssalarida xodimlarni ilmiy faoliyati jarayoniga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayonini tashkillashtirishda dolzarb aloqador ahamiyatga ega bo'lgan bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье предлагается широко вовлекать сотрудников в процесс научной деятельности в высших учебных заведениях, поддерживать разработку ими программного обеспечения на основе современных информационно-коммуникационных технологий, поддерживать их педагогическую деятельность, регулярно совершенствовать их знания и навыки которые актуальны в организации образовательного процесса.

SUMMARY

This article proposes to widely involve employees in the process of scientific activity in higher educational institutions, support their development of software based on modern information and communication technologies, support their teaching activities, and regularly improve their knowledge and skills. which are relevant in the organization of the educational process.